
Qirguli mavzeida sport majmuasi foydalanishga topshirildi

Beruniy" mahalla fuqarolar yig'ini hududidagi sobiq "Davr" majmuasi qoshidagi bo'sh turgan binoda sport sog'lomlashtirish markazlari ochildi. Mahalladagi hokim yordamchisi Muzaffar Qo'ldashevning sa'y-harakatlari bilan sportning taykvando turi bo'yicha mashg'ulotlar yo'lga qo'yildi.

Kuni kecha "Madaniyat" mahalla fuqarolar yig'ini hokim yordamchisi Shavkatjon Komilov tomonidan fuqaro Abduvohid Shamshievga ajratilgan 90 mln. so'm miqdordagi imtiyozli kredit ham maqsadli sarf etildi.

Sport majmuasida "Everlas gym klub" ayollar uchun fitnes klubi ish boshladi. Uchta yangi ish o'rin yaratildi. Ayni kunda 50 nafardan ortiq xotin-qizlar sport bilan muntazam shug'ullanishmoqda. Malakali trenerlar jalb qilingan mashg'ulotlar uchun oylik to'lov 200 ming so'm etib belgilangan.

Sport majmuasining ochilish marosimida shahar hokimligi vakillari, hududdagi mahallalarda faoliyat olib borayotgan hokim yordamchilari va sportsevar fuqarolar ishtirok etishdi.

Farg'ona shahar hokimligi Axborot xizmati

2023-03-15 18:32:03